SHAXSNI JAMOA ORQALI TARBIYALASH, RIVOJLANTIRISH USULLARI

Bahromova Baxtigul Abdug'afforovna
Sergili tumanidagi 104- sonli umumta'lim maktabining boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.11185156

Annotasiya. Ushbu maqolamizda boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zaro jamoa bo'lib ishlash qobilyatini shakllantirish. Jamoa bo'lib ishlashning afzallik tomonlari, ularni amalda qo'llashning muhim sifatlari va pedagoglarning qo'llay olish qobilyatini shakllantirish haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: Shaxs, jamoa, tarbiya, pedagogika, o'quvchi, o'qituvchi.

Jamiyatning taraqqiyotida, yurtimizning, millatimizning taqdirida o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligi, komilligi, intelektual salohiyati muhim ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek : "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdidlar va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviy va ma'rifatga axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir"[1] .

Bugungi kunda ta'lim to'g'risidagi qonun va davlat ta'lim standartlariga to'g'ri keladigan va ularni amalga oshirish jarayonida yuqori malakali o'qituvchilari, pedagoglarni tayyorlash dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish ta'lim va zamonaviy o'qitish modelining asosiy maqsadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Davr talabi sifatida ijtimoiy munosabatlar ko'lamining yosh, o'sib borayotgan avlodning o'ta murakkab xususiyatga ega munosabatlar jarayonida har tomonlama yetuk qilib tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Yoshlarni rivojlantirish, ularni xalqimizning manfaatlariga foyda keltiradigan yosh avlodni shakllantirishimiz uchun samarali ishlar olib borilmoqda.

Ko'rib, bilib kelganmizki, xalqimiz tomonidan yaratilgan boy ilmiy – ma'rifatni, fan asoslarini o'zlashtirib unga o'z faoliyatiga amal qila oladigan shaxslarni tarbiyalab yetishtirish rivojlanish sari intilishdir. Yoshlarni shaxs sifatida shakllantirish , ularni jamoa orqali tarbiyalash, ongini o'stirish, dunyo qarashini boyitish xalqimizga yetuk, barkamol avlod tarbiyalab berish bizning burchimizdir.

Shu xususida birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov quyidagicha fikr yuritgan edilar : "Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o'z qobiliyatini , o'z talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilashi, ma'nan boyitish uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir" [2] .

Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi barcha davrda, ham muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilgan .

Insonlarda bir necha asrlar mobaynida shakllangan egoistik, egoism kabi munosabatlar va odatlarni yo'q qilish uchun kishilarni o'z o'zidan jamoa ruhida tarbiyalash, ulardagi egoistik sifatlarga qarshi kurashish va ularni hamkorlik, hamjihatlik ruhida tarbiyalash , shu kabi munosabatlarni shakllantirish zarurdir .

Alisher Navoi, Jomiy, Komenskiy, A.S.Makarenkoning pedagogik meroslarini yaxshi o'rgangan olim Ashurmat Axmedov jamoatchilik tamoyilini ilmiy hamda Sharq allomalaring meroslariga va turli manbalarga suyangan holda o'rganib, bizga boy meros qoldirgan va u quyidagi jumlalarda shunday deydi : "Jamoatchilik (birdamlik) axloqning asosiy tamoyili sifatida yakka shaxslarning bir biriga bo'lgan munosabatini, shaxsga va jamoaga bo'lgan munosabatini va o'z navbatida, jamiyatning shaxsga bo'lgan munosabatini ifoda etadi. Jamoatchilik o'zining axloqiy

qiymatiga ham ega shaxs va individ jamoa o‘z burchini anglash, jamoaning manfaati uchun ongli ravishda xizmat qilish, o‘zaro yordam va hamkorlikka asoslanishi, o‘ziga talabchan bo‘lishi va jamoaga ishonishi kerak”.

Hozirgi kunda zamonaviy pedagog jamoa bilan yaxshi ishlashni bilish va intellektual jamoa shakllantira olishi lozim.

Pedagoglamizni oldiga qo‘ygan vazifalari quyidagicha bo‘lishi kerak.

1.Boshlang‘ich sinf ta’lim samaradorligini oshirishda jamoa bo‘lib ishlashning afzallik tomonlari va uni tashkil qilishning zamonaviy usullarini tashkil qilish.

2. Jamoa bo‘lib ishlashning har jabhada samaradorligi va uni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qo‘llashning foydali taraflari, jamoa bo‘lib ishlash usullarini shakllantirishda eng maqbul yo‘llarni aniqlash.

XULOSA. Xulosa qilib shularni aytishimiz joizki bolalarning jamoa orqali ishlash va kreativ fikrlash qobilyatini rivojlantirish, ijodiy izlanuvchan, yuqori malakali, har jabhada ilg‘or yoshlarni tarbiyalash va ularning kelajagiga yangicha yondashish zamon talabi sifatida o‘z o‘rnini belgilab kelyapti. Pedagoglarimizni jamoa orqali tarbiyalashga tayyorlash yosh avlodning psixologik, fiziologik jihatdan yetuk inson hayotiy qarama – qarshilik, shu xususida, buzg‘inchi g‘oyalar, nosog‘lom turmush kechirish va turli xil noqonuniy harakatlarni sodir etishdan o‘zini saqlab qola oladi. Jaloliddin Rumiy ta’kidlaganlariday : “ Insonni yo so‘zlash uchun yaxshi bitta so‘zi, yoki , sukut saqlay oladigan odobi bo‘lsin!!!”

Kelajagimiz avvalambor pedagoglarimizning qo‘lida desak mubolag‘a bo‘lmaydi yosh avlodni tarbiyalab uning yuragiga vatan tuyg‘usini tanitish, yurt ravnaqi uchun foyda keltiradigan sog‘lom, yetuk, barkamol shaxs qilib yetkazish bizning vazifamiz ekan biz bundan faxrlanamiz.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar Vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi.
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent., 2000.-245 b.
3. Ilg‘or pedagogik texnologiya: “Nazariya va amaliyot ―Ma‘naviyat asoslari” Darsi asosida ishlangan uslubiy qo‘llanma. ―Abu Ali ibn Sino. Toshkent. 2001
4. www.arxiv.uz
5. www.ziyouz.com
6. http://www.genderi.org.